


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura
mutaxassisligining malaka talablari**

Toshkent - 2023



ISHLAB CHIQLGAN VA KIRITILGAN:

- “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ning 2023 yil
«21» 08 dagi ~~307~~ sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me‘yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

| T/r | | bet |
|--------|---|-----|
| 1. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi | 4 |
| 1.1 | Qo'llanish sohasi..... | 4 |
| 1.1.1. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablarining qo'llanilishi..... | 4 |
| 1.1.2. | Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari..... | 4 |
| 1.2. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tasnifi..... | 4 |
| 1.2.1. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari..... | 4 |
| 1.2.2. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari..... | 4 |
| 1.2.3. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari..... | 5 |
| 1.2.4. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari..... | 5 |
| 2. | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar..... | 7 |
| 2.1. | Umumiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.2. | Kasbiy kompetensiyalar..... | 7 |
| 2.3. | Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egalashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar..... | 8 |
| 2.3.1 | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar | 8 |
| 2.3.3 | 70812302 - <i>Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik</i> magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi | 8 |
| 2.4. | Kvalifikatsiya..... | 8 |
| | | |
| | Bibliografik ma'lumotlar..... | 9 |
| | | |
| | Kelishuv varag'i..... | 10 |
| | | |
| | Kelishuv dalolatnomasi..... | 11 |

1. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligining umumiy tasnifi

70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutahassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi malaka talablarining qo'llanilishi.

Malaka talabi *70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.*

1.1.2. Malaka talabning asosiy foydalanuvchilari:

– mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasaining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor - o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasaining talabalari;

– bakalavriat bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

– ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

– oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;

– kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

– oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi.

1.2.1. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi – tegishli magistratura mutaxassisligi bitiruvchilarining kasbiy faoliyat sohalari, muayyan tabiiy xo'jalik sharoitlarida sug'oriladigan yerlarda resurslarni boshqarish hamda ulardan samarali foydalanish, keng ko'lamli sug'orish ishlari natijasidagi ekologik muhitning o'zgarishi, tabiiy sharoitlarni o'rganishda melioratsiya va meliorativ fanning asosiy ilmiy-texnik muammolari suv va yer bilan bog'liq faoliyatlarni olib borish sohalari.

Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat sohaslarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.2. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

– tegishli magistratura mutaxassisliklari bitiruvchilarining kasbiy faoliyatlari obyektlari;

– suv xo'jaligi va melioratsiya obyektlari;

– ilmiy-tadqiqot, ilmiy ishlab chiqarish obyektlari;

– melioratsiya va sug'orma dehqonchilikda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil qilish obyektlari;

– irrigatsiya va melioratsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar.

Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrnlarning kasbiy faoliyat obyektlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

1.2.3. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *Ishlab chiqarish-texnologik faoliyati;*
- *Tashkiliy-boshqaruv faoliyati;*
- *Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyati;*
- *Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);*
- *Konsalting xizmati faoliyati va shukabilarni o'z ichiga oladi.*

Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrarning kasbiy faoliyat turlarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligi bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

1.2.4. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi qo'yidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bulishi lozim:

- melioratsiya va sug'orma dehqonchilik mutaxassisligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha modellar, algoritmlar, metodlar tadqiq qilishi va ishlab chiqish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishi va olingan natijalariga ishlov berish;
- ilmiy seminarlarda ishtirok etish;
- sug'orish tarmoqlarining konstruksiyalarini, gidromeliorativ tizimlarni loyihalashni, irrigatsiya eroziyasi va unga qarshi kompleks tadbirlarni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- kasbiy faoliyat sohasining ixtisosligiga mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;
- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish va tahlil qilish;
- sohaga oid yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:

- melioratsiya va sug'orma dehqonchilikda yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha texnologik jarayonlarini amalga oshirish va ularni rivojlantirish;
- irrigatsiya va melioratsiya tizimlari ishini tashkil etish va yuritish;
- resurs tejankor sug'orish texnologiyalarini joriy qo'llash va takomillashtirish;
- muayyan iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarda suv va yer resurslaridan foydalanish texnologiyalari, uslub, jihoz va vositalarini joriy etish, ulardan foydalanish va takomillashtirish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- loyihalarni boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning oldini olish choralarini ishlab chiqishi, loyiha komandasini boshqarish;
- ishlab chiqarishni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish.

Loyihalash-konstruktorlik-texnologik faoliyatida:

- ilmiy va loyihaviy-konstruktorlik-texnologik faoliyat muammolarini chuqur tahlil qilish, masalalarni qo'yish va asoslash;

- ilmiy-amaliy loyihalar biznes-rejalarini ishlab chiqish va maqbullashtirish;

- ilmiy-tadqiqot: suv tejamkor va yerlarning meliorativ holatini yaxshilovchi texnologiyalar, usullar va tizimlarni boshqarish, suv va yer resurslaridan samarali fodalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarning metodologiyasini o'zlashtirish;

- ilmiy-tadqiqot: qishloq xo'jalik ekinlarining sug'orish rejimlari; suv tejamkor sug'orish texnika va texnologiyalari; usullari; sug'orish va zax qochirish tizimlari; yerlarning meliorativ holati (yerlarni tekislash, sho'r yuvish, sizot suvlari sathi va sifatini boshqarish); melioratsiyadagi ilmiy-tadqiqotlarning metodologiyasini o'zlashtirish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- manbalarga asoslangan holda, amaliy, innovatsion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hal etilishi lozim bo'lgan va takomillashtirish talab etiladigan yo'nalishlarga doir mavzularni aniqlash;

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish va yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish;

- zamonaviy tadqiqot metodlari va metodologiyasi, ta'lim-tarbiyaga doir nazariyalar, konsepsiyalar, ilg'or tajribalardan foydalanish;

- yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarni tadbiq qilinishini tashkil qilish.

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):

- mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish;

- mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning zamonaviy texnik va kompyuter vositalaridan foydalanish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalarni o'zlashtirish va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam rivojlantirib borish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- mutaxassislik bo'yicha melioratsiya va sug'orma dehqonchilik sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

- melioratsiya va sug'orma dehqonchilik sohasida magistr ixtisosligiga mos mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

- mutaxassislik bo'yicha melioratsiya va sug'orma dehqonchilik sohasida sug'orish tarmoqlarini va kollektor zovurlaridan oqilona foydalanish, ta'mirlash ishlari va rekonstruksiya qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

- sug'orish texnika va texnologiyalarni loyihalash va hisoblash, jumladan loyihalash va hisoblash ishlarini avtomatlashtirish jarayonlarini o'rganish, ilmiy asoslangan tavsiyalar yaratish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish;

- ta'mirlaydigan, qaytadan va yangidan quriladigan melioratsiya va gidromeliorativ tizimlar ob'ektlarning injenerlik dizaynini ta'minlash;

- melioratsiya va sug'orma dehqonchilik obyektlarning injenerlik servisini ta'minlash;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha konsalting, injenerlik dizayn, injenerlik servis xizmatlarini ko'rsatish.

- mutaxassislik bo'yicha suv resurslari va ulardan foydalanish sohasida mavjud holatning analitik sharhini ishlab chiqish.

2. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyaini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibli va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;
- axborot tizimlari, axborot texnologiyalaridan ilmiy-tadqiqot, pedagog faoliyatida foydalana olish;
- axborotni to'plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- pedagogik faoliyatda ta'limning innovatsion usullaridan foydalanish, yangi pedagogik, axborot va internet texnologiyalarini tadbiq etgan holda tashkil etish;
- o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, ma'lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo'lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- pedagogik faoliyatida axborot, pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahoratdan foydalanishi;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi lozim.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar:

Magistrlar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmaketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar - magistratura mutaxassisligi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari - magistratura mutaxassisligi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, ko'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

ilmiy amaliyot – majburiy va tanlov fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'inlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot - pedagogik maxoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

| O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat | Ajratilgan kredit |
|--|---|-------------------|
| Majburiy fanlar | 960 | 32 |
| Tanlov fanlar | 540 | 18 |
| Ilmiy faoliyat | 2100 | 70 |

2.3.2. 70812302 - Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi:

| T.r. | Fanning malakaviy kodi | O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari | Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda | Kredit miqdori | Semestri |
|-------------|------------------------|--|-------------------------------------|----------------|----------------|
| 1.00 | | Majburiy fanlar | 960 | 32 | |
| 1.01 | ITM5104 | Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi | 120 | 4 | 1 |
| 1.02 | MTD5104 | Meliorativ tuproqshunoslik va dehqonchilik | 120 | 4 | 1 |
| 1.03 | MIU5104 | Melioratsiyada ilmiy izlanishlar uslublari | 120 | 4 | 1 |
| 1.04 | MYR5108 | Melioratsiya va yerlarni rekultivatsiyalash | 240 | 8 | 1,2 |
| 1.05 | GTQ5104 | Gidromeliorativ tizimlarni tadqiq qilish | 120 | 4 | 2 |
| 1.06 | IMG5104 | Irrigatsiya va melioratsiyada geoaxborot tizimlari | 120 | 4 | 2 |
| 1.07 | TOS6104 | Tuproq-o'simlik-suv bog'liqligi | 120 | 4 | 3 |
| 2.00 | | Tanlov fanlar | 540 | 18 | |
| 2.00 | | <i>Tanlov fanlar (5 fan)</i> | 540 | 18 | 1,2,3 |
| | | Jami | 1500 | 50 | |
| | | Ilmiy faoliyat | 2100 | 70 | 1,2,3,4 |
| | | Jami | 2100 | 70 | |
| | | HAMMASI | 3600 | 120 | |

2.4. Kvalifikatsiya: muhandis-gidrotexnik, tadqiqotchi pedagog

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, irrigatsiya, melioratsiya, suv xo'jaligi, suv resurslari, sug'orma dehqonchilik, suv tejamkor sug'orish texnologiyalari, suv resurslarini boshqarish, samarali fodalanish, sug'orish tizimlari, yerlarni tekislash, sho'r yuvish, sizot suvlari, metodologiya, ilmiy boshqarish, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellashtirish, fan ishchi dasturlari, zamonaviy o'lchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.